



ISSN (E): 2181-4570

SURXONDARYO VILOYATI AHOLISI SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINI SO‘NGI YILLARDA O‘SISHI.

Iskandarova Nozikoy Isomiddinovna


Surxondaryo viloyati Termiz davlat universiteti geografiya magistratura 2-kurs.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati aholisining keyingi yillardagi o‘sishi, migratsiyasi, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari haqida kerakli ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Demografiya, tug‘ilish darajasi, o‘lim darajasi, doimiy aholi, tabiiy o‘shish, turmush qurganlar.

Surxondaryo viloyati — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941- yil 6- martda tashkil etilgan (1925- yil 29- iyundan Surxondaryo tumaniga aylangan). 1960-yil 25-yanvarda Qashqadaryo viloyatiga birlashtirilgan. 1964-yil fevralda qayta tashkil etilgan. Respublikaning janubi-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan. Viloyat nomi vohadan oqib o‘tuvchi Surxon (fors-tojikcha “qizil”) daryosi nomidan kelib chiqqan. Janubda Amudaryo bo‘yida Afg‘oniston, shimolda, shimoli-sharqda va sharqda Tojikiston, janubi-g‘arbda Turkmaniston, shimoli-g‘arbda Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 20,1 ming km². Aholisi 2612,4 ming kishi (2019-yil 1-oktabr holatiga). 14 tuman (Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho‘rchi, Qiziriq, Qumqo‘rg‘on), 8 shahar (Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Termiz, Sharg‘un, Sherobod, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on), u yerda.114 ta shahar, 865 ta qishloq aholi punkti (2020). Markazi — Termiz shahri. Aholisi, asosan, o‘zbeklar (78%), shuningdek, tojik, rus, turkman, qozoq va boshqa millat vakillari (2004). Aholi o‘rtacha zichligi – 1 km² ga 130,0 kishi. Shahar aholisi 923,4 ming kishi, qishloq aholisi 1689,0 ming kishi (2019). Doimiy aholi. Surxondaryo viloyatida doimiy istiqomat qiluvchilar soni 2021-yil 1-yanvar holatiga 2 million 681 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilning yanvar-dekabrda esa 51,8 ming nafarga yoki 1,9 foizga o‘sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 971,4 ming kishini (jami aholi ulushi 36,2 foizni tashkil etdi), qishloq aholisi soni 1709,6 ming kishi (63,8%).

Doimiy aholi soni. Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021-yil 1- yanvar holatiga 2681,0 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 51,8 ming kishiga yoki 1,9 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 971,4 ming kishini





(jami aholi sonidagi ulushi 36,2 %), qishloq aholisi soni 1709,6 ming kishini (63,8 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020-yil yanvar- dekabr



Aholi soni 51,8 ming kishiga ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni 74,6 ming nafarni tashkil etdi.

FHDYO bo'limlarida 24,8 mingta nikoh va 1,6 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

Surxondaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi


(2020-yil yanvar- dekabr oylarida)






ISSN (E): 2181-4570

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2021-yil 1-yanvar holatiga)



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 392,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo'rg'on 238,7 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 222,1 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 77,0 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi.





ISSN (E): 2181-4570

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2020-2021-yillar 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2020- yil	2021- yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati	2 629,1	2 681,0	102,0
Termiz sh.	179,6	182,9	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	176,4	180,1	102,1
Angor	132,1	134,7	102,0
Bandixon	74,3	77,0	103,6
Boysun	115,4	117,5	101,8
Muzrabot	141,4	144,2	102,0
Denov	384,6	392,3	102,0
Jarqo'rg'on	217,8	222,1	102,0
Qumqo'rg'on	233,8	238,7	102,1
Qiziriq	114,1	115,9	101,6
Sariosiyo	209,3	213,1	101,8
Termiz	77,1	78,5	101,8
Uzun	171,4	173,9	101,5
Sherobod	193,3	197,4	102,1
Sho'rchi	208,5	212,7	102,0


Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 392,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo'rg'on 238,7 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 222,1 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 76,5 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan Termiz shahri 1,8 % ni, Denov tumani 2,0 % ni va Sariosiyo 1,8 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qiziriq tumanida -1,6 % ni tashkil etdi.

Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi

(2021- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

Tumanlar	erkak	ayol
Surxondaryo viloyati	1354,8	1326,2
Termiz sh.	90,3	92,6



*tumanlar:*


Oltinsoy	92,4	87,7
Angor	67,4	67,3
Bandixon	39,1	37,9
Boysun	60,2	57,3
Muzrabot	71,5	72,7
Denov	200,2	192,1
Jarqo'rg'on	113,9	108,2
Qumqo'rg'on	118,1	120,6
Qiziriq	58,5	57,4
Sariosiyo	106,4	106,7
Termiz	39,5	39
Uzun	88,8	85,1
Sherobod	100,1	97,3
Sho'rchi	108,4	

Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 74,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 28,1 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega oshgan (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 28,0 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti. 2019- yilning mos davriga nisbatan jumladan. Termiz shahrida (30,6 promilledan 22,6 promillega), Oltinsoy (28,8 promilledan 28,0 promilega) ga kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni (2019-2020- yil yanvar-dekabr oylari)**

Tumanlar	2019- y	2020- y	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan %
Surxondaryo viloyati	72 680	74 616	102,7
Termiz sh.	4041	5553	137,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	4878	5142	105,4
Angor	3497	3517	100,6
Bandixon		2371	
Boysun	3105	3020	97,3
Muzrabot	3764	3802	101,0
Denov	10839	11070	102,1
Jarqo'rg'on	6042	6358	105,2
Qumqo'rg'o	6867	6666	97,1
n			
Qiziriq	5055	3325	65,8
Sariosiyo	5682	5815	102,3
Termiz	2929	1934	66,0
Uzun	4835	4774	98,7
Sherobod	5130	5129	100,0
Sho'rchi	6016	6140	102,1

Tumanlar kesimida tug'ilganlar koeffitsiyenti (2019-2020- yil yanvar-dekabr, kishi)

2019- y.	2020- y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan (+;-)	
Surxondaryo viloyati	28,0	28,1	100,4
Termiz sh.	22,6	30,6	135,4
<i>tumanlar:</i>			





ISSN (E): 2181-4570


Oltinsoy	28,0	28,8	102,9
Angor	26,7	26,4	98,9
Bandixon		31,2	
Boysun	27,2	25,9	95,2
Muzrabot	26,9	26,6	98,9
Denov	28,5	28,5	100,0
Jarqo'rg'on	28,0	28,9	103,2
Qumqo'rg'on	29,8	28,2	94,6
Qiziriq	45,2	29,0	64,2
Sariosiyo	27,4	27,5	100,4
Termiz	38,7	24,9	64,3
Uzun	28,5	27,7	97,2
Sherobod	26,8	26,3	98,1
Sho'rchi	29,2	29,2	100,0


Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 11,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,1 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti. 2019-yilning mos davriga nisbatan ko'payishi Termiz sh. (5,5 promilledan 3,6 promil-lega), Denov (4,5 promilledan 4,0 promillega), Angor (4,8 promilledan 4,5 promillega), Jarqo'rg'on (4,9 pro-milledan 4,4 promillega) tumanlarida kuzatildi.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 11,9 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 62,3 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,9 % i o'simtalardan, 4,0 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,5 % i ovqat hazm qilish a'zo-lari kasalliklaridan, 7,4 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan 1,5 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,4 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,6 ming nafarni tashkil etib, ularning 58,1 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 22,3 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 14,0 % i tug'ma anomaliyalardan va 5,6 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.





Tabiiy o'sish. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 62,7 ming kishini (2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 62,1


Nikoh tuzganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO oganlari tomonidan 24,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,3 promilleni tashkil etdi.

Nikohdan ajralishlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti, 0,6 promilleni tashkil etdi.

Nikoh tuzganlar soni. 2019- yilning mos davriga nisbatan ka-mayish sur'atlari Denov (441), Qum-qo'rg'on (508), Jarqo'rg'on (456), Termiz tumani (446) to'g'ri kelmoqda

Nikohdan ajralishlar soni. 2019- yilning mos davriga nisbatan yuqori kamayish sur'atlari Jarqo'rg'on (45), Denov (78), Termiz shahri (10), Uzun (43) to'g'ri kelmoqda.

Migratsiya. 2020-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 19,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 10,9 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 2,9 ming kishi bo'lgan.





ISSN (E): 2181-4570

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Denov tumanida (minus 1,6 ming kishi), Uzun tumanida (minus 1,6 ming kishi), Sariosiyo (minus 1,2 ming kishi), Jarqo‘rg‘on (minus 1,0 ming kishi) qayd etildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. P.Baratov , “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” –T O‘qituvchi 1996-y
2. A.Soliyev ,Muxammadiyev “Iqtisodiy geografiya asoslari” T: O‘zbekiston 1996-69.
3. A.Soliyev,Nazarov M,Qurbonov Sh. “O‘zbekiston hududlarini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish” T-Mumtozso‘z. 2010-y
4. ”Tarixdan manzaralar” Surxandaryo T-1991
5. ”Mustaqillik yillarida O‘zbekiston viloyatlari” T-Sharq .1996

